

ADABIYOT DARSLARIDA, “DAXSHAT” HIKOYASINI INTERFAOL USULLARDA O‘QITISH METODIKASI

Tursunboyeva Nixola O‘ktamjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi talabasi

E-mail: tursunboyevanixola@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20556096>

Annotatsiya: *“Daxshat” hikoyasi zamonaviy pedagogik usullar — “Bahsmunozara” va “Klaster” metodlari asosida tahlil qilindi. Hikoyadagi qo‘rquv, vahima, jaholat va inson ruhiyati bilan bog‘liq g‘oyalar ochib berildi. Mazkur metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati hamda mavzuni chuqur anglash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Daxshat, hikoya, qo‘rquv, vahima, jaholat, inson ruhiyati, bahsmunozara, klaster metodi, tahlil, tarbiyaviy ahamiyat.*

Аннотация: *В данной работе рассказ «Дахшат» анализируется с использованием современных педагогических методов — «Дискуссия» и «Кластер». В произведении раскрываются идеи страха, паники, невежества и внутреннего состояния человека. Эти методы помогают развивать у учащихся самостоятельное мышление, аналитические способности и глубокое понимание темы.*

Ключевые слова: *Дахшат, рассказ, страх, паника, невежество, внутренний мир человека, дискуссия, метод кластера, анализ, воспитательное значение.*

Annotation: *This work analyzes the story “Daxshat” using modern pedagogical methods such as “Discussion” and “Cluster”. The story reveals ideas related to fear, panic, ignorance, and human psychology. These methods help students develop independent thinking, analytical skills, and a deeper understanding of the topic.*

Keywords: Daxshat, story, fear, panic, ignorance, human psychology, discussion, cluster method, analysis, educational significance.

Abdulla Qahhor 1907-yili 17 senyabrda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi bo'lgan. Lekin bu kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmagani sababli u doim ish izlab qishloqqa qishloq ko'chib yurardi. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursuh, Kudash, Buvayda, Tolloq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Kechqurunlari otasi Abdullaga suratli eski kitoblardan hikoyalar o'qib bergan. Qiyinchiliklarga qaramay, otasi Abduqahhor Jalilov va onasi Rohat aya o'g'liga boshlang'ich ta'limni bera olishgan. U o'n yoshga to'lganda Buvaydadagi eski maktabga o'qishga kiradi, biroq ko'p o'tmay oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'on maktabida Abdulla qo'qonli Muhammadjon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko'rdi. Muhammadjon qori ilg'or fikrli ma'rifatparvar odam edi. U geografiya, matematika kabi ilmlarni ham o'qitgan. Ayniqsa, shogirdlarida sharq adabiyotiga qiziqish uyg'otishga uringan. Ehtimol shu bois bo'lsa kerak, Abdulla Qahhor umrining ohirigacha Sa'diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o'rni kelganda ulardan parchalar keltirib, fikrini dalillar edi. Shundan so'ng Abdulla Qo'qonda yangi ochilgan "Istiqbol" maktab internatida o'qiy boshlaydi, bu internat Abdullaning zehni yanada o'tkirlashtirdi. 1922-1924 yillarda Abdullada adabiyotga qiziqish avj ola boradi. Bu yillarda u Qo'qon pedtexnikumida o'qidi, umrida birinchi marta Pushkin, Gogol, Turgenev, Tolstoy asarlaridan xabardor bo'ldi. Texnikumda chiqadigan "Bilim yurti" devoriy gazetasiga she'rlari va maqolalari bilan tez-tez qatnashib turdi. Abdulla Qahhor 1926-yilda ishchilar fakultetiga o'qishga kiradi va uni tugatib yana jurnalistik faoliyat bilan shug'ullanadi. U 1934-yilda O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida tahsil oladi.

Abdulla Qahhor adabiyot olamiga hikoya janrining tengsiz ustasi bo'lib kirdi. Yozuvchini hatto o'zbek Chexovi deb ham atashadi. Xalqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Abdulla Qahhor nomi Toshkent va Qo'qondagi bir necha ko'cha va maktab, shuningdek, madaniyat uylari va respublika Satira teatriga berilgan. Poytaxtda Abdulla Qahhor uy-muzeyi ochilgan va haykali o'rnatilgan. Uning ijodi o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqqan va ko'plab asarlari bugungi kunda ham sevib o'qiladi. Uning hikoyalardan biri bu "Daxshat" hikoyasi Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan bo'lib, u yozuvchining XX asr o'rtalaridagi ijodiy faoliyati davriga mansub asarlardan biridir. Aniq yozilgan yili ko'rsatilmagan bo'lsa-da, hikoya taxminan 1930-1940-yillarda yaratilgan. Ushbu hikoya inson ruhiyati, qo'rquv va jamiyatdagi muammolarni yoritishga bag'ishlangan. Asarda voqealar orqali insonning ichki kechinmalari, ayniqsa qo'rquv hissi qanday paydo bo'lishi va uning inson xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi ochib beriladi. Hikoya qahramonlari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy muhit, odamlar o'rtasidagi munosabatlar hamda ayrim toifa vakillarining og'ir hayoti tasvirlanadi. Ayniqsa, ayollar taqdiri va ularning jamiyatdagi o'rnini bilan bog'liq muammolar ham muhim o'rin egallaydi. "Daxshat" hikoyasi maktab o'quv dasturida 9-sinf adabiyot darsliklarida beriladi. Bu asar o'quvchilarga nafaqat badiiy matnni tushunish, balki inson ruhiyatini tahlil qilish, voqealarga chuqurroq yondashish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham muxim hisoblanadi. Ushbu "Daxshat" hikoyasini dars jarayonida to'g'ri va samarali tashkil etish o'quvchilarning nafaqat badiiy tafakkurini balki mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Avvalo, darsni motivatsion kirish bilan boshlash muhim. O'qituvchi o'quvchilarga „Qo'rquv nima?“, „Inson nimadan qo'rqadi?“ kabi savollar berib, ularni mavzuga ruhiy jihatdan tayyorlashi mumkin. Bu usul o'quvchilarni faollikka undaydi va hikoya mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Keyingi bosqichda „Klaster“ metodidan foydalanish samarali hisoblanadi. Ya'ni o'quvchilar „daxshat“ hikoyasi tushunchasi atrofida fikrlar yozib, uni turli jihatlar bilan bog'laydilar. Bu usul orqali ular hikoya g'oyasini

oldindan his qilishadi va matnni o'qishda faolroq bo'lishadi. Asarni o'rganishda rollarga bo'lib o'qish {dramatizatsiya} usuli juda foydali hisoblanadi. U shunday usulki, o'quvchilar qahramonlar roliga kirib, turli xil voqealarni jonlantiradilar. Bu nafaqat matnni yaxshi o'zlashtirishga, balki ularning nutqi va ifoda qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yana bir metodlardan biri shuki, u interfaol usullar orqali o'qitish o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Misol uchun, "Aqliy hujum" metodikasi:

1-savol: "Daxshat" hikoyasida asosiy voqea nima haqida?

Javob: Hikoyada oddiy odamlarning urush davridagi qo'rquvi, vahima va psixologik holati tasvirlanadi.

2-savol: Asarda "daxshat" so'zi nimani anglatadi?

Javob: "Daxshat" bu yerda urush, zo'ravonlik va odamlar boshidan kechirgan qo'rquvli vaziyatni ifodalaydi.

3-savol: Hikoyadagi qahramonlar qanday muhitda yashaydi?

Javob: Ular urush va notinchlik hukm surgan, xavf-xatarli muhitda yashashadi.

4-savol: Abdulla Qahhor bu hikoya orqali nimani ko'rsatmoqchi bo'lgan?

Javob: U insonlarning ichki qo'rquvi, urushning dahshati va oddiy hayotga ta'sirini ko'rsatgan.

5-savol: Hikoyaning asosiy g'oyasi nima?

Javob: Asosiy g'oya — urushning inson ruhiyatiga salbiy ta'siri va tinchlikning qadriga yetish zarurligi.

"Bahs-munozara" metodi

Bahs uchun savollar:

1. Hikoyadagi daxshatning asosiy sababi nima?
2. Qo'rquv insonni ojiz qiladimi?
3. Jamiyatdagi jaholat va vahima odamlar ongiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Hikoya bugungi hayot bilan bog'lanadimi?

O'qituvchi sinfni 2 guruhga bo'ladi.

1-guruh fikri:

- Qo'rquv insonni o'zligini yo'qotishga olib keladi.
- Hikoyadagi voqealar odamlarning vahimaga tez berilishini ko'rsatadi.
- Daxshat inson tafakkurini cheklaydi.

2-guruh fikri:

- Ba'zan qo'rquv insonni ehtiyotkor qiladi.
- Har qanday daxshat ortida sabab bo'ladi.
- Odamlar bilimsizlik sabab vahimaga tushadi.

Oxirida o'qituvchi barcha fikrlarni umulashtiradi: Hikoya inson ruhiyati, qo'rquv va jaholatning salbiy oqibatlarini ochib beradi. Muallif odamlarni aql bilan ish tutishga chaqiradi. Guruhlarda ishlash, muhokama, savol-javob va tahlil metodlari orqali o'quvchilar asar mazmunini chuqurroq anglaydilar. Ayniqsa, qahramonlarning ichki holatini tahlil qilish ularda empatiya va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu hikoya o'quvchida voqealarga yuzaki emas, balki chuqurroq qarash zarurligini anglatadi. Undagi tasvirlar orqali hayotda har bir holat ortida yashirin ma'no bo'lishi mumkinligi seziladi. Asar insonning ichki dunyosidagi o'zgarishlarni sezgirlik bilan ifodalab, tasavvur va tafakkurni faollashtiradi. O'qish jarayonida paydo bo'ladigan hissiyotlar esa matnning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Shu bois, hikoya nafaqat badiiy, balki ma'naviy jihatdan ham o'quvchini boyitadi.

“Klasster” metodi

DAXSHAT

| | | |

Qo'rquv Jaholat Vahima Ruhiy bosim

| | | |

Inson Bilimsizlik Mish-mishlar Azob

ojizligi Ishtonchsizlik Qo'rquv Tushkunlik

kuchayishi tarqalishi

“Daxshat” hikoyasi asosida tuzilgan klaster orqali asardagi asosiy g‘oyalar — qo‘rquv, vahima, jaholat va ruhiy bosim o‘zaro bog‘liq holda yoritildi. Klaster metodi voqealar va tushunchalarni tartibli ravishda tahlil qilishga yordam berdi. Natijada hikoya insonni har qanday vaziyatda aql bilan ish tutishga, mish-mish va asossiz qo‘rquvlarga berilmaslikka undashi aniqlandi. Bu metod o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va mavzuni chuqur anglashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Daxshat” hikoyasini interfaol metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur anglashiga, mustaqil va erkin fikrlashiga katta yordam beradi. An’anaviy dars usullaridan farqli ravishda interfaol metodlar o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning adabiyot faniga mehrini kuchaytiradi. “Daxshat” hikoyasi o‘zining mazmuni, ruhiy tasvirlari va hayotiy voqealari bilan o‘quvchilar tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Asarni interfaol usullar orqali tahlil qilish davomida o‘quvchilar qahramonlarning ichki kechinmalarini his etadilar, voqealarga mustaqil munosabat bildiradilar hamda yaxshilik va yomonlik, qo‘rquv va jasorat kabi tushunchalar mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu esa ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, “Aqliy hujum”, “Bahs-munozara”, “Klaster”, “Rolli o‘yin” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutq madaniyati, muloqot qilish qobiliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar dars jarayonida o‘z fikrlarini erkin bayon etishga o‘rganadilar, tengdoshlari fikrini tinglash va hurmat qilish madaniyatini egallaydilar. Bu esa ularning nafaqat adabiyot fanidagi, balki kundalik hayotdagi kommunikativ kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi. Interfaol metodlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Hikoya voqealarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar turli xil xulosalar chiqaradilar, qahramonlar xatti-harakatiga baho beradilar va muammoli vaziyatlarga o‘z yechimlarini taklif etadilar. Natijada o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish hamda hayotiy vaziyatlarga ongli yondashish malakalari shakllanadi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar asosida tashkil etilgan adabiyot darslari ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar dars davomida faol qatnashganlari sababli mavzu uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. Ayniqsa, badiiy asarlarni sahnalashtirish, guruhli ishlash va muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'qitish o'quvchilarning hissiy olamiga kuchli ta'sir etadi. Umuman olganda, "Daxshat" hikoyasini interfaol metodlar yordamida o'qitish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois adabiyot darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol yondashuvlardan keng foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor {1983}. Asarlar. 6-jild: Hikoyalar. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/ AbdullaQahhor](https://uz.wikipedia.org/wiki/AbdullaQahhor)
3. <https://n.ziyouz.com/>
4. Olimova S. {2018}. xx asr o'zbek adabiyotida ayol obrazi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti
5. O'zbek xalq maqollariva afsonalari {2012}. Toshkent: SHarq nashriyoti.
<https://share.google/DgF86DLXDAUFC4XAe>